

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABDUNAZAROVA ZARINA ISLOMOVNA

**ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
TALABALARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI (IKKINCHI CHET TILI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Abdunazarova Zarina Islomovna

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (ikkinchi chet tili misolida) 3

Абдуназарова Зарина Исломовна

Методика развития речевых компетенций студентов на основе современных информационных технологий (на примере второго иностранного языка)..... 25

Abdunazarova Zarina Islomovna

Methodology of developing learners' speech competence on the base of information technologies (the case of second foreign language)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASHI ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABDUNAZAROVA ZARINA ISLOMOVNA

**ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
TALABALARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI (IKKINCHI CHET TILI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Ped.2520 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdhti.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saliyeva Zarrina Ilxomovna
filologiya fanlari nomzodi, professor v.b.

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Lola Tohirovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Davronova Fotima Pirnazarovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning "29 avgust 2025-yil soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy). Tel: (99866) 2382937; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 61934 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12 avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil "12 avgust dagi № 29 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
koubi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Bir martalik ilmiy kengash ilmiy
seminar raisi, filologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyoti inson hayotining barcha jabhalarida ulkan rol o'ynaydigan va butun dunyoga axborot tarqalishini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalar ta'sirida ro'y bermoqda. Kishilik hamjamiyati pedagogik faoliyatning sifat jihatidan tubdan yangicha tavsiflariga ehtiyoj sezmoqda. Hozirda oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini egallash malakasini izchil rivojlantirish tamoyili kuzatilmoqda, zero professional faoliyat sohalarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llay biladigan malakali kadrlar talab qilinmoqda. Ingliz tili darslarida axborot va muloqot texnologiyalarining keng qo'llanilishi ularni o'quv jarayoniga jadal tatbiq etilishini belgilab, oliy ta'lim muassasasining ta'lim makonini modernizatsiyalashga ko'maklashish zarurati ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Jahonda ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar qatorida, jumladan O'zbekistonda (O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti), Rossiyada (A. I. Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti), Buyuk Britaniyada (University College London — UCL) va AQShda (Teachers College, Columbia University) amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar alohida o'rin tutadi va nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha mavjud metod va usullarni, mazkur holatda autentik materiallar asosida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish asosiy jihat hisoblanadi. Shu sababli talabalarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirilishi bilan axborot texnologiyalaridan foydalanishlari o'rtasidagi bog'liqlik yorqin ko'zga tashlanadigan dalil bo'lib, oqibatda kasbiy ta'lim sifati oshishiga erishiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridan davlat hayotining barcha sohalarida rivojlanish oqibatida jamiyatda sodir bo'lgan tub o'zgarishlar hamda Milliy ta'lim modeli va dasturini amaliyotda tatbiq etish chora-tadbirlari respublikamizda O'zbekiston tarixida yuz bermagan noyob vaziyatni yuzaga keltirdi. O'zbekiston Respublikasida chet tillarini o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan tubdan yangi darajaga ko'tarish tadbirlari pedagoglarning professional kompetensiyalarini takomillashtirish va unga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini, izchillik bilan o'rganishga e'tibor ortib bormoqda, hamda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishning chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Yaqin kelajakdagi ustuvor vazifalardan biri respublika yoshlarini tarbiyalash, "...ma'naviy boy va axloqiy yetuk, ajdodlarimizning bebaho merosi va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan mustaqil dunyoqarashga ega va erkin fikrlovchi barkamol shakllangan shaxslarni"¹ o'stirishdan iborat. Shu munosabat bilan nutqiy kompetensiyani shakllantirish maqsadida xorijiy tillarni o'qitishning asosiy maqsadiga, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga va rivojlantirishga ko'maklashuvchi zamonaviy axborot

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish va davlat va jamiyat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirishga bag'ishlangan 2021-yil 21-yanvardagi selektor yig'ilishidagi ma'ruzasi.

texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali erishish mumkin. Aynan axborot kompetensiyasiga ega talaba yoshlarni ta'lim jarayonida yetuk qilib tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi va davlatimizda olib borilayotgan har qanday islohotlarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-610-soni "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim va tarbiya hamda ilm-fanni rivojlantirish chora-tadbirlari", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2030-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 6108-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli O'zbekiston Respublikasida "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PQ-60-sonli "2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi qarorlar va boshqa sohaga tegishli me'yoriy-normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni ma'lum darajada bajarilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalartizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha L.T. Axmedova, J.J. Jalolov, T.Q. Sattarov, G.T. Mahkamova, D.O'. Hoshimova, A.T. Irisqulov, K. Risqulova, G.I. Toirova, I.M. Tuxtasinov, Sh.S. Ashurov, G.G. Azizova, S.D. Muxammedjanova kabi olimlar o'z tadqiqotlarini olib borishgan².

² Axmedova L.T. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов // *Фан ва технология* – Toshkent, 2009. – С.190.; Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi: chet tillari oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik.: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent, 2012. – B. 429.; Sattarov T.Q. O'qituvchilik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak chet tili muallimining sotsiolingvistik malakalarini shakllantirish (ingliz tili materialida). *Pedagogika fanlari dok.diss.*– Toshkent, 2000. – B. 373.; Махкамова Г.Т. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов английского языка // *Фан – Ташкент*, 2010. – С. 208.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лагун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий // *УзГУМЯ* – Ташкент, 2007. – С. 350.; Irisqulov A.T. Xorijiy tillarni o'qitishda lingvo-madaniy yondashuvlarning ahamiyati. *Filologiya masalalari.* №2.– Ташкент, 2006. – B. 89.; Risqulova K. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi. *Pedagogika fanlari dok.diss.* – Toshkent, 2017. – B. 229.; Toirova G.I. O'zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik. *Filol. fanlari dok. diss. avtoref.*– Toshkent, 2017. – B.50.; Tuxtasinov I. M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. *Avtoref. Ped. Fan. Dokt. (DSc)* – Toshkent, 2018. – B. 66.; Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S. *English Language Teaching Methodology // Fan va texnologiya* – Toshkent, 2015. – P.14.; Azizova G.G. Oliy ta'lim muassasalari

Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlarida ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitish masalalarini metodik jihatdan tahlil qilish bo'yicha R.P. Milrud, A.A. Miroyubov, N.D. Galskova, N.I. Gez, Y.N. Solovova, A.K. Krupchenko, P.I. Obrazsov kabi olimlar o'z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan³.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim jarayonini kompyuterlashtirishning psixologik-pedagogik jihatlari rossiyalik olimlardan Ye.S. Polat, M.Yu. Buxarkina, S. Arefyev, A.N. Shamov, M.V. Seliverstova, N.A. Suxova, O.I. Xalupo, I.A. Zimnyaya, M.G. Bagiyeva⁴ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan ta'lim jarayonida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish K.M. Bailey, K. Goh, K. Richard, B. Emily, Anna-Maria Stoikalarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan⁵.

Xorijiy til pedagoglarini axborot-metodik ta'minoti va kasbiy malakasini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji masalalari X.A. Mamatqulov, A.B. Rahmonov, M.A. Fayziyev⁶ kabi mahalliy mutaxassislar tomonidan o'rganilgan.

professor-o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish (ingliz tili materiallari misolida). Avtoref. Ped. Fan. Bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Toshkent, 2019.– B. 52; S. J. Muxammedjanova Bo'lajak mutaxassislarda ingliz tilini o'qitish jarayonida kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning metodik asoslari Avtoref. Ped. Fan. Bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Samarqand, 2021. - B. 9-17.

³ Мильруд Р.П. Определение понятия и сущности обучения английскому языку в специальных целях. Электронный ресурс: <https://www.iyazyki.prosv.ru> (дата обращения: 11.01.2019); Мирлоубов А.А. Методика обучения иностранным языкам // Традиции и современность. – Москва, 2010. – С. 464 Электронный ресурс: <https://www.labirint.ru/books/247362/> (дата обращения: 23.08.2019); Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам // Лингводидактика и методика: учеб, пособие для студ. лингв. ун-тов и фак, ин.яз. высш. пед. учеб. заведений. – Москва, 2006. – С. 81; Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам. Базовый курс лекций. – Москва: Просвещение, 2002. – С. 239.; Крупченко А.К., Кузнецов А.Н. Основы профессиональной лингводидактики: Монография. – Москва: АПКППРО, 2015. – С. 232.; Образцов П.И. Методы и методология психолого-педагогического исследования: учебное пос. Санкт-Петербург, 2004. – С. 268.;

⁴ Полат Е.С. Педагогические технологии дистанционного обучения // Юрайт: Москва, 2023. - С. 392.; Бухаркина М.Ю. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования // Академия, Москва, 2007. - С. 315с.; Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности студентов педагогического вуза.: дис. ...канд. пед. наук. – Сочи, 2004. – С.190.; Шамов А.Н. Формирование лексической компетенции как основополагающая цель в обучении иностранному языку // Языки и культуры народов мира в лингводидактической парадигме. Пятигорск, 2007. – С. 386-391.; Селиверстова М.В. Формирование управленческих компетенций учителя в условиях развития современного образования: дис. ... канд. пед. наук. – Ижевск, 2011. – С. 212.; Сухова Н.А. Формирование культурно-страноведческой компетенции на основе аутентичных материалов в процессе обучения устной речи студентов педагогического вуза: Второй курс немецкий язык: дис. ...канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2002. – С. 244.; Халупо О.И. Формирование коммуникативной культуры студентов технического вуза при изучении иностранных языков.: дис. канд. пед. наук. – Челябинск, 2002. – С. 144.; Багиева М.Г. Становление современных информационных технологий в образовании: автореф. дис. докт. пед. наук. - Владикавказ, 2003. - С. 22.

⁵ Bailey K.M. Practical English Language Teaching: Speaking // McGraw.Hill – New York, 2005. – P. 257; Goh, C. Teaching speaking in the language classroom // SEAMEO Regional Language Centre, – Singapore 2007. – P. 46-47; Richard J.C., Rodgers Th.S. Approaches and Methods in Language Teaching // Cambridge University Press, – England, 2001. – P. 77-78.; Emily, E.B. Examination of Task-Based Language Learning Methods on High School Students' Oral Proficiency in French as a Foreign Language: abstract of doct. disser. – Northern Illinois University, Illinois, 2018. – P. 99.; Anna-Maria STOICA. Methods for the assessment of ESP. – New York: Universities din Pitesti, 2006. – P. 326-329.

⁶ Rahmonov A.B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish: Avtoref. Ped. Fan. Dokt. – Toshkent, 2019. – B. 27.; Маматкулов Х.А. Совершенствование информационно-методического обеспечения развития профессиональной направленности педагогов по иностранным языкам: автореф. дисс. доктора философии пед. наук. –

L.I. Babushkina, Yu.Yu. Timkina, M.A. Akoto, R.M. Alfahad kabi xorijiy mualliflar ham o'z asarlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ikkinchi chet tilini o'rganishda o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy muloqot bog'liqlikni ochib berdi⁷.

Ingliz tilini axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida o'qitishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy ishlar ko'pligiga qaramasdan, zamonaviy axborot-kommunikatsiyalaridan foydalangan holda, ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rganayotgan talabalarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yetarli darajada o'rganilmasdan qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar institutining ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasi va pedagogika sohalarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy ta'limning dolzarb masalalari: metodologiya va pedagogika sohalarining rivojlanish omillari va zamonaviy tamoyillari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarning chet til (ingliz tili) ta'limi sifatini oshirish maqsadida nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun innovatsion onlayn texnologiyalardan foydalanish samaradorligini asoslash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning didaktik, uslubiy va pedagogik imkoniyatlarni tadqiq etish;

oliy o'quv yurtlari talabalarining chet tilda axborot texnologiyalarini egallaganligi darajasi va chet til ta'limi jarayonida kommunikativ texnologiyalarning pedagogik joriylanishining hozirgi holatini tahlildan o'tkazish;

oliy ta'lim muassasalarida chet tilde o'quv jarayoni sifatini oshirish maqsadida nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun axborot texnologiyalarini tatbiq etishning didaktik shart-sharoitlarini belgilash va tajriba vositasida tekshirish;

o'rganilayotgan ikkinchi chet til sifatida ingliz tilidan nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun "Flipgrid", "Poll everywhere", "Miro" multimediyaviy kompyuter texnologiyalari asosida interaktiv topshiriqlarni yaratish.

Toshkent, 2017. – С. 47.; Fayziyev M.A. Talabalarning bilim va ko'nikmalarini kompyuter imitasion modeli asosida shakllantirish metodikasi: Avtoref. Ped. Fan. Dokt. – Toshkent, 2008. – В. 30.

⁷ Бабушкина Л.И. Формирование социокультурной компетенции у студентов при изучении иностранных языков средствами информационно-коммуникационных технологий, дис. ... кандидата пед. наук. – Чебоксары, 2013. – С. 56.; Тимкина Ю.Ю. Интеграция информационно-коммуникационных технологий в процессе профессиональной подготовки педагога: на примере создания веб-страниц при изучении иностранного языка: дис. ... кан. пед. наук. – Ставрополь, 2013. – С. 67.; Akoto M.A. Computer-based collaborative multimodal writing in the French as a foreign language context, Doctoral Dissertation, Texas A&M University - 2021. – P. 105.; Alfahad, R. M. Gamifying the CREW: Effects of collaborative responsive writing using gamification, in interactive web-based e-books, on L2 international students' motivation and academic vocabulary achievement , Doctoral Dissertation, University of South Florida, 2021. – P. 87.

Tadqiqotning obyekti sifatida chet tilini o'qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyasini axbot vositalari asosida rivojlantirish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinovda Samarqand davlat chet tillar instituti, Qarshi davlat universiteti va O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 300 nafar talabasi ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari talabalarining ikkinchi chet tilda nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, usullari va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik manbalarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, diagnostik(kuzatish, anketa, test, so'rovnomalar), pedagogik tajriba-sinov va natijalarni matematik statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

til ixtisosligi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik imkoniyatlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi, zamonaviy axborot vositalari yordamida ikkinchi chet tilini o'qitishga yo'naltirilgan samarali auditoriya topshiriqlarini shakllantirishga asoslangan metodik yondashuv takomillashtirilgan;

o'quv jarayonining uslubiy-axborot ta'minoti, til ta'limi bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalarining ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchi talabalar layoqati va ehtiyojidan kelib chiqib, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadigan axborot texnologiyalar bazasida lisoniy tayyorgarlik jarayonini bosqichma-bosqich optimallashtirish hisobidan mazmuni mukammallashtirilganligi aniqlashtirilgan;

ikkinchi chet tili sifatida ingliz tilining so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda "Flipgrid", "Poll everywhere", "Miro" kabi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan didaktik imkoniyatlar tizimi ilmiy asosda dalillandi hamda uning qo'llanishi talabalarning nutqiy faolligi va kommunikativ kompetensiyasini sezilarli oshirishi bilan isbotlangan;

"Flipgrid", "Poll everywhere", "Miro" axborot texnologiyalarini o'quv jarayoni va darsdan tashqari faoliyatda qo'llash orqali mustaqil ta'lim malakalarini hamda lisoniy yo'nalishdagi bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantiruvchi kommunikativ-interaktiv mashqlar tizimi takomillashtirilishi nazariy va amaliy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

nutq kompetensiyalarini rivojlantirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish kontekstida ingliz tilini chet til sifatida o'qitish uchun ta'lim vositalari takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida chet til darslarida professional ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan axborot-kommunikativ texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayoniga o'quv materiallari taklif qilingan va tatbiq etilgan;

ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish amaliyotiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalar taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan tadqiqot usullari, fundamental ilmiy-nazariy qoidalar qo'llanilishida ishonarli manbalardan

foydalanganligi, yuqorida keltirilgan tahlil va mulohazalarning asoslanganligi, matematik statistika metodlaridan foydalanilgan holda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi, xulosa va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilganligi, shuningdek olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati axborot texnologiyalari asosidagi nutqiy kompetentlikning o'zaro aloqasini belgilanishi bilan izohlanib, bu bizga lingvistik kompetensiyalar shakllanishida zamonaviy texnologiyalarning o'rnini qayta idrok etish va taklif qilinayotgan innovatsion texnologiyalarning samaradorligini asoslash imkonini berdi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati innovatsion ta'lim metodlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan topshiriqlardan, ikkinchi til sifatida o'qitilayotgan ingliz tili bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda, shuningdek o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Til ta'limi bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalari talabalarining nutqiy kompetensiyasini axborot texnologiyalari vositasida rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

til ixtisosligi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarni o'qitish metodikasi zamonaviy "Flipgrid", "Poll everywhere", "Miro" kabi axborot-rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali auditoriya topshiriqlarini shakllantirish natijasida takomillashtirilganligi haqidagi xulosalardan "Markaziy Osiyo universitetlarida hisoblash lingvistikasi" №58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS loyihasi bajarilishida qo'llanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 17-fevraldagi № 31803.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, virtual veb-resurslar asosida og'zaki nutqni rivojlantirish uchun o'quv materiallari ishlab chiqildi;

o'quv jarayonining uslubiy-axborot ta'minoti, til ta'limi bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalarining ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchi talabalari layoqati va ehtiyojidan kelib chiqib og'zaki nutq ko'nikmalarini yaratishni nazarda tutadigan, "Flipgrid", "Poll everywhere", "Miro" texnologiyasi bazasida lisoniy tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish hisobidan mazmuni mukammallashtirilganligi haqidagi xulosalardan "O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash va baynalmilallashtirish" EPP-1-2015-1-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHEIMEP № 561624 amaliy loyihasining bajarilishida foydalanilmoqda (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 7-martdagi №66503.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu materiallardan foydalanish til ta'limi bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalari (holbuki, boshqa ixtisosliklar uchun foydadan holi bo'lmaganligi ta'kidlangan) talabalarining nutq kompetensiyalari rivojlanishiga va kasbiy malakalarining oshishiga xizmat qildi;

ikkinchi chet tilining so'zlashuv ko'nikmalarini yaratishda "Flipgrid", "Poll everywhere", "Miro" kabi axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun didaktik imkoniyatlar tizimi dalillanganligi haqidagi xulosalardan "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida virtual resurs yaratish va tatbiq etish" I-

204-4-5 amaliy loyihasini amalga oshirilishida foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 7-martdagi № 666.30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz tili darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nutqiy kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlarini shakllantirdi;

o'quv jarayonining uslubiy-axborot mazmunini takomillashtirishga yo'naltirilgan tavsiyalardan, til ta'limi bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalari talabalarining qobiliyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib, og'zaki nutq ko'nikmalarini hosil qilishni nazarda tutgan holda, Samarqand viloyat davlat teleradiokompaniyasining "Assalom, Samarqand" teleko'rsatuvi yaratilishida foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 17-fevraldagi №01-07/51-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz tilini chet tili sifatida o'qitayotgan professor-o'qituvchilarning chet til o'qitish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika hamda 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 4 maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishning nazariy-metodologik asoslari" deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot mavzusi yuzasidan mavjud ilmiy-metodik adabiyotlar, xususan, talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jihatdan axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosliklari, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganishda lisoniy kompetensiyani shakllantirishning alohida jihatlari, til ta'limi bilan mashg'ul oliy ta'lim muassasalari talabalarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish maqsadida axborot texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi mavjud holati tahlil qilinadi. Hozirgi paytda ta'lim jarayonini axborotlashtirishning ustuvor yo'nalishi doirasida ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalaridan faol foydalanish kuzatilmoqda. Zamonaviy ta'limning texnik vositalari jamlanishi o'quv jarayonini modernizatsiyalashga ko'maklashadi, o'quvchilarning fikrlash

qobiliyatlarini faollashtiradi, o'qituvchi ijodkorligiga yordam beradi, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantiradi va bularning barchasi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi⁸. Globallashtirish jarayonida jamiyatni axborotlashtirishning ustuvor jihati ta'limni axborotlashtirishdir, bu axborotni saqlash, qayta ishlash, jamlash, tarqatish va foydalanish uchun metodlar, jarayonlar, dasturiy va apparat ta'minoti jarayonlarini integratsiyalash tizimidir. Axborot texnologiyalari quyidagilar uchun imkoniyat yaratadi:

1. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olish jarayonini ratsional tashkillashtirishga;

2. Ta'limni samarali tashkil etishga, OTM talabalarining majud hissiy idrokini rag'batlantirgan holda va ularning intellektini yangi konseptual multimedia asboblari bilan ta'minlashga;

3. Ochiq ta'lim tizimini yaratish va har bir insonga noyob ta'lim makonini taqdim etish;

4. Ta'lim uslubidagi farqlar va individual qobiliyatlariga qaramasdan o'quvchilarni faol ta'lim tizimiga jalb etish;

5. Ta'lim jarayonini individuallashtirishga ko'maklashadigan tubdan yangi kognitiv vositalarga mos keladigan kompyuterning o'ziga xos imkoniyatlaridan foydalanish;

6. O'quv-anglash jarayonlarining barcha sathlarini faollashtirish⁹.

Axborot texnologiyalarining ta'lim uchun qadriyati shundan iboratki, ular o'qituvchilar va talabalar tasarrufida bo'ladigan, favqulodda noyob yorqin multi sensorli interaktiv, amalda cheklanmagan imkoniyatli ta'lim muhitini yaratadi. Chet tillari ta'limiga kompetentli yondashuv turli mazmundagi kompetensiyalar shakllanishini nazarda tutadi. O'zgaras bo'lib qoladigan umumiy kompetensiyalar bo'lib kommunikativ, ya'ni nutqiy muloqot – nutqiy harakat dasturini yaratish qobiliyati saqlanadi, unda samarali nutqiy muloqot nutqiy xatti-harakatni yaratish qobiliyati sifatida talqin qilinadi¹⁰.

AKT – kompetentligi qidirish, tahlil qilish, qayta ishlash va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, jumladan, maxsus vazifalarni hal etishda, zaruriy ma'lumotlarni uzatish kabilarni ta'minlashga yo'naltirilgan. Nutqiy ta'lim rakursida mazmuniy yadrosi nutqiy o'zlikni ifodalash, nutqiy axloq, ya'ni xatti-harakat bo'lgan lisoniy ijtimoiy ssenariylar hamda tashqi qobiq sifatida – axborot-texnologik kompetensiyalari va ko'nikmalari hisoblanadi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish maqsadida axborot texnologiyalarini realizatsiyasining asosiy didaktik prinsiplari bo'lib, bizning nazarimizda, madaniyatlararo mushtaraklik, til saviyasini inobatga olinishi, shaxslararo muloqot, mavzulardagi moslashuvchanlik, kutilmaganlik va tayyorlanganlikning uyg'unligi kabilar hisoblanadi. Madaniyatlararo mushtaraklik turli millat va madaniyatlararo faol muloqotni nazarda tutadi. Ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o'rganayotgan bakalavr talaba


⁸ Онорин Д.Е. Обучение иностранному языку взрослых с использованием социальной сети на основе формирования учебной самостоятельности: автореф. дис. кан. по пед. наук.- Пермь, 2018. - С.15.

⁹ Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учеб. Пособие // Академия, – Москва, 2005. – С. 63.

¹⁰ Литвиненко М.Ф. Коммуникативная компетенция как методическое понятие // Технология, педагогика и образование: том 27, 2016. - № 5.- С.15-17.

uchun, axborot texnologiyalari vositasida muloqot qilish o‘ta dolzarb hisoblanadi. Til bilish darajasini inobatga olish prinsipi faol o‘qishni kafolatlaydi. Zero, ta’lim va muloqot kichik guruhlarda (2-3 talaba ishtirokidagi auditoriyada) sodir bo‘ladi, o‘qituvchi berilgan mavzu va tanlanilgan nutq ssenariysiga muvofiq talabalarning til bilish darajasiga “moslashadi”, nutq materialini individual kompetensiyaga moslashtiradi, bakalavrga maksimal o‘shish imkonini beradi. Bundan tashqari, ingliz tili o‘qituvchilari doim intilishadigan ikkinchi chet tilida erkin muloqot, monologik va dialogik nutqdan foydalangan holda kutilmagan topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi. Fikr va tuyg‘ular bilan o‘zaro adekvat xatti-harakat faqat o‘quv guruhining doimiy tarkibi bilan amaliy mashqlarni tekshirish amalga oshiriladi¹¹.

Fan mavzulari moslanuvchanligi prinsipi talabalarning individual qobiliyati va shaxs sifatida fazilatlari bilan ajralmas bog‘liq bo‘ladi. Til ko‘nikmalariga o‘rgatishda muayyan mavzudan foydalanish har bir individ uchun uning yoshi, ijtimoiy maqomi, tarbiyasi, individual maqsadlari, tabiati, xususiyatlari, mental layoqati va boshqa me’zonlarga bog‘liq. Kutilmaganlik va tayyorlanganlik darajasining uyg‘unligi mashg‘ulotlarning samaradorligini didaktik asosini tashkil etadi. Ingliz tili o‘qituvchilari nutqiy muloqot mavzularini, leksik va grammatik minimumini, nutqiy motivatsiya metodlarini va nutqiy ko‘nikmalar nazoratini qamraydigan mashg‘ulotlar rejasini tuzishadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Nutqiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun quyidagi ko‘nikmalarni inobatga olish kerak^[III]

Nutqiy kompetensiya muloqot maqsadi, sohasi va vaziyatiga bog‘liq tarzda turli individlarning nutqiy aktlarini tanishlari va o‘zlarining nutqiy aktlarini qayta yaratishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, bilimlar va malaka jamlanmasidir.

¹¹ Филиппова Е.М. Компьютерные технологии в самостоятельной работе иностранных студентов на начальном этапе высшего профессионального обучения: автореф. дис. ... кан. пед. наук.- Санкт-Петербург, 2006.- С. 25.

Talabalarning nutqiy kompetentligi tavsifi nazariy ahamiyatga molik shartlarga tayanmog‘i kerak: kompetentlik; nutqiy kompetentlik; ixtisoslik diskursida nutqiy kompetentlik.

Talabalarning quyidagi nutqiy kompetentligi rivojlanish me‘zonlari farqlanadi:

1. Motivatsion me‘zon-bilim olish va bo‘lajak kasbini egallashga, atrofdagi sotsium bilan kommunikatsiyaga kirishishga, talabalarni qo‘yilgan maqsadga erishishlarini rag‘batlantirishga motivatsiya berishni taklif etadi;

2. Kognitiv me‘zon turlicha psixologik aspektlarni egallash ko‘nikmasi, auditoriyani diskursiv dialogga jalb etish va suhbatdoshning asosiy e‘tiborini nutqiy aktga jamlashdan iborat;

3. Verbal va noverbal kommunikatsion bilimlarni hamda nutqiy muloqot etiketini egallash, samarali muloqot o‘tkazish uchun ma‘lum shartlarni bilish, ingliz tili va nutqiy odobning etik me‘yorlarini o‘zlashtirish: so‘z yasalishi, neologizmlar, frazeologizmlar, idomatik iboralar, grammatik tuzilmalar, nutqda so‘zlashuv iboralaridan, maqollar, turg‘un qolipli so‘zlar, shuningdek nutqning kommunikativ me‘zonlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kabilarni o‘zida mujassam qiladi;

4. Faoliyat standartlari notiqning kommunikativ strategiya va taktikani tanlashini qamraydi, bevosita aniq vaziyat tabiatiga mos keladi; og‘zaki va yozma nutqda xatolarni ko‘rishi va to‘g‘rilay olishi, suhbatdoshni tinglab idrok etishi; nutqiy me‘yorlarni bilishi va rioya qilishi, mantiqiy fikrlashi va dalillarni keltira olishi; dialogik nutq ko‘nikmalarini egallashi; muloqot paytida murakkabliklarning yechimini topishi va ziddiyatli vaziyatlarni yumshatishi kabilarni qamraydi;

5. Qadriyat-mazmun me‘zonlari bo‘lajak til mutaxassislarining shaxs sifatida qadriyatlarini, qadriyatlar haqida bilimlari va ta‘lim olishlarining ma‘nosini, ona tiliga va ikkinchi til sifatida ingliz tiliga yaxshi munosabatda bo‘lishini qamraydi;

6. Refleksiv me‘zonlar – bu o‘z-o‘zini tarbiyalash, takomillashtirish, rivojlantirishning metod va shakllarini nutqiy kompetensiyani rivojlantirish kontekstida tahlil qila bilish; mantiqiy fikrlash, kuzatish, anglash, dialogning boshqa ishtirokchilari bilan suhbatda kamchiliklarda o‘z-o‘zini tahlil qilish, til kompetensiyasini rivojlanishi va takomillashtirilishini baholash, odob-axloqqa rioya qilish, til boyligi va nutq ta‘sirchanligi refleksiyasi: foydalanilayotgan ma‘lumotlar bazasida o‘z fikrlarini ifodalay olish; notiqlik malakasini tahlil qilish; nutq aktlar davomida xatti-harakatlari va faoliyatini idrok etish qobiliyatidir;

7. Intuitiv-vaziyat me‘zonining ahamiyati ham katta. Mazkur me‘zon kognitiv me‘zonning yetarli darajada shakllanmaganligiga asoslanadi: bu holda bo‘lajak mutaxassis nutq jarayonida intuitsiyaga ishonadi va tayanadi;


8. Funksional-bazaviy me‘zon nutqiy kompetentlikning yetarli darajadagi yuqori ko‘rsatkichlari me‘zoni va o‘lchamlariga tayanadi;

9. Ijodiy me‘zon improvizatsiyaga asoslanib, o‘zida nafaqat kommunikatsiyaga intilishni, balki ijodiy kompetentlikka intilishni ham mujassam qilib, nutqiy kompetentlik ko‘nikmalarini foydalanishga va professional dialogga kirishish, olib borish, imlo va nutq ifodaviyligi talablariga javob beruvchi gapni

loʻnda ifodalash (ogʻzaki va yozma tarzda) malakasidan, aniq uslub, nutqiy kontekstlar janrlarini inobatga olgan holda foydalanishga asoslanadi.

Yuqorida sanab oʻtilgan meʼzonlarning uygʻunligi til taʼlimi bilan shugʻullanadigan oliy oʻquv yurtlari uchun tanlab, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qoʻllash orqali qoʻyilgan maqsadga, rejalashtirishgan natijalarga mazmunan erishishni nazarda tutadi.

Samarqand davlat chet tillar instituti, Qarshi davlat universiteti va Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining “Scale up, Headway” darsligi bazasiga asoslangan ingliz tili oʻquv-metodik kompleksi (OʻUK) sharhi va namunaviy hamda oʻquv dasturlari tahlili, ular talabalarda quyidagi nutq kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltirilganligini koʻrsatadi (2-rasmga qarang):



2-rasm. Nutq kompetensiyalarini shakllantirish

Ixtisoslik yoʻnalishi boʻyicha davlat standartlari talablaridan kelib chiqib, oʻquv jarayonida kompetentlik jihatdan yondashuv til oʻqitish mashgʻulotlarini oʻtkazishni interaktiv shakllarining keng spektri oʻrganilmogʻi kerak (monologik va dialogik nutqdan foydalanilgan holda oʻyinli va ishbilarmonlik oʻyinlaridan foydalanish, soʻzlash, tinglash, oʻqish, yozish va oʻtilgan yangi soʻzlarni mustahkamlash koʻnikmalarini takomillashtirish uchun turlicha pedtexnologiyalardan foydalaniladigan topshiriqlar), talabalarda kasbiy malakani shakllantirish va rivojlantirish maqsadida mustaqil taʼlim bilan uygʻunlashtirish ham zarur.

Ikkinchi bob “Axborot texnologiyalarini tatbiq etish orqali til taʼlimi bilan shugʻullanuvchi oliy taʼlim muassasalari talabalarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish” deb nomlangan. Mazkur bobda “Flipgrid” til taʼlimi bilan shugʻullanuvchi oliy taʼlim muassasalari talabalarining ogʻzaki nutq koʻnikmalarini rivojlantiruvchi vosita sifatida, “Poll everywhere” texnologiyasi integratsiya koʻnikmalarini shakllantirish, talabalarning nutq kompetensiyalarini

rivojlantirish rakursida “Miro” axborot platformasini amalga oshirilish usuli sifatida o‘rganildi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari og‘zaki muloqotdan boshlab, matndan axborot olish uchun turli plandagi ishlarga qadar, shuningdek, olingan ma’lumot asosida to‘g‘ri va aniq gap shakllantirishgacha, barcha nutq faoliyatlari rivojiga yo‘naltiriladi. “Flipgrid” - bu talabalar bilan videomuloqotni amalga oshirish uchun original axborot-kommunikatsiya texnologiyasi bo‘lib, u orqali topshiriqlarni, savollarni, kvestlarni, viktorinalarni, topshiriq javoblarini ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan talabalar ham, ularning ustozlari ham yozib olishlari mumkin bo‘ladi. “Flipgrid” texnologiyasi talabalarning kreativ va ijodiy imkoniyatlarini ochilishiga ko‘maklashadi, ayniqsa, vazifalarni auditoriyada bajarishga uyaladigan yoki qo‘rqadigan talabalar uchun qulaydir. Uchinchi kurs talabalari tomonidan uy sharoitida tayyorlangan videoxabar o‘zlari uchun qulayroq sharoitlarda o‘zligini ifodalash va mustaqil tayyorlanish imkoniyatini taqdim etadi¹². Mazkur texnologiya amalga tatbiq etish jarayonida o‘quv vaziyatlarini modellashtirishga imkon berib, an‘anaviy ta‘lim metodlarini to‘ldiradi, kommunikativ yadro yoki chet tilida muloqot qilishning asosiy ko‘nikmalarini, begona tilda fikrni ifodalay olish imkonini va kommunikativ anglash vazifasini mustaqil hal etish ko‘nikmalari va malakasini shakllanishiga yordamlashadi, talabalarni o‘qishga motivatsiyalaydi, o‘rganilayotgan predmetga o‘zgacha nazar bilan qarashga undaydi, shu bilan birga ularning ijodiy va intellektual imkoniyatlarini ochadi. Xullas, Flipgrid asinxron aloqa vositasi bo‘lib, u sizga mazmunli suhbat o‘tkazish imkonini beradi. Onlayn tizimda ishlash jarayonida talabalarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi oshadi, shu orqali o‘z-o‘zini ijodiy anglash kuchayadi, talabalarning madaniyatlararo muloqoti ham shakllanadi.

Poll everywhere axborot kommunikativ texnologiyasi talabalar bilan onlayn ishlash uchun favqulodda noyob texnologiyadir. Ushbu texnologiya talabalardan so‘rovnoma, testlar o‘tkazish va ovoz berishlarini tashkil etish uchun foydalaniladi¹³. Talabalar topshiriqlarga o‘zlarining shaxsiy kompyuterlaridan, planshet va telefonlaridan javob berish imkoniga ega, bundan tashqari ushbu servisdan saytdan mustaqil tarzda yoki Power Point, Google slides dasturlari ilovasi sifatida ham foydalanish mumkin bo‘ladi. “Poll everywhere” dasturi vositasida quyidagilarni bajarish mumkin:

- fanni yaratish;
- talabalarni fanga yozilishlarini tashkil etish;
- zarur o‘quv materiallarni taklif qilish;
- talabalar vazifa bajarishlarini baholash va ularning yutuqlarini kuzatib borish;
- talabalar muloqotini tashkil qilish.

¹² Della Amirulloh, Ika Damayanti, Yellen Citraningrum Flipgrid: A Pathway to Enhance Students Speaking Performance // Konoplin - Indonezyiya, 2021. – P. 125.

¹³ Kappers, W. M., & Cutler, S. L. (2015). Poll Everywhere! Even in the Classroom: An Investigation into the Impact of Using PollEverwhere in a Large-Lecture Classroom. *Computers in Education Journal*, 6(20). Retrieved from <https://commons.erau.edu/publication/333>

“Poll everywhere” texnologiyasini so‘rovnoma yoki test formatida qo‘llash mumkin. Dastur tuzatishlari-nastroykasi talabaga javob berib bo‘lishi bilan noto‘g‘ri javoblar va yo‘l qo‘yilgan xatolar bilan tanishish imkonini beradi. Bunda o‘qituvchi olingan javoblarning batafsil tahliliga ega bo‘ladi, ya‘ni javob berishda murakkabliklar keltirib chiqargan javoblar haqida ma‘lumot oladi. Avtojo‘natma formatida bir martalik yoki ko‘p martalik tanlov usulida savollar va qisqa javoblar yaratish mumkin. “Poll everywhere” axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uslubiy va didaktik muammolarni yanada samarali hal qilish imkonini beradi. Bu vazifalarga quyidagilar kiradi:

- global tarmoqdagi original audio materiallardan foydalangan holda tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish; tinglangan materialning to‘g‘riligini nazorat qilish;

- turli darajadagi murakkablikdagi internet matnlaridan foydalangan holda retseptiv grammatik o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish; ovoz chiqarib o‘qish texnikasini o‘rgatish; leksik va grammatik o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish; matndagi semantik ma‘lumotlarning asosiy, ikkilamchi va boshqa turlarini ajratib ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantirish; o‘qilgan matnni tushunishni nazorat qilish;

- samarali yozishning grammatik ko‘nikmalarini rivojlantirish; grammatik ko‘nikmalarni testlar bilan faollashtirish; grammatika bo‘yicha ma‘lumotnoma va axborot adabiyotlaridan foydalanish;

- yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish; insholar, referatlar va hamkorlikning boshqa turlarini yozish;

- muammoni muhokama qilish uchun dialogik va monolog nutqdan foydalangan holda nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- test topshiriqlari, elektron lug‘at va boshqa manbalardan foydalanish orqali talabalarning so‘z boyligini to‘ldirish;

- o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari, an‘analari, shovqinli odob-axloq qoidalari, muloqot sharoitida odamlarning nutq xatti-harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z ichiga olgan global tarmoqdagi lingvistik va madaniy materiallar asosida talabalarning dunyoqarashini kengaytirish;


- matnni tahlil qilishning har xil turlariga o‘rgatish; til to‘siqlarini mustaqil yengish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- turli internet materiallari yordamida ingliz tilini o‘rganish uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish; tinglash, o‘qish, gapirish, yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

“Miro” axborot texnologiyasi eng yaxshi interaktiv ta‘lim usullaridan hisoblanadi. “Miro”-onlayn doskasiga yo‘l internet tarmog‘i orqali amalga oshiriladi, bu turli murakkablikdagi va yo‘nalishdagi topshiriqlar bilan ishlash uchun erkin imkoniyat mavjudligini anglatadi. Fayllar qo‘shish, chizish, cheksiz yozish amallarini nafaqat auditoriyada, balki undan tashqarida ham bajarish mumkin (3-rasmga qarang)¹⁴:

¹⁴ Raad K.A. The Use of Miro in Teaching Practice -Vol. 10 No. 3 University of Warwick, Coventry, UK, 2023.- P. 94.

Axborot texnologiyalari funksiyalari



3-rasm. Nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan axborot texnologiyalarining imkoniyatlari

Onlayn doska onlayn va oflayn ta'limni aralashtirish uchun nihoyatda qulay usul bo'lib, har ikki formatdan faqat plyus jihatlarni qoldiradi. Guruh qatnashchilari bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun quyidagi unsurlarni qamraydi:

